



**TARJIMASHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK SOHALARIGA OID
ILMIY QARASHLAR**

Madaminova Mohimbonu Qahramonjon qizi

Qo'qon davlat universiteti akademik litseyi

Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining o'zaro aloqadorligi, ularning zamonaviy ilmiy yo'nalishlari hamda madaniyatlararo muloqotdagi o'rni tahlil qilinadi. Tarjima jarayonining lingvokulturologik, hermenevtik va kognitiv yondashuvlari, shuningdek, adabiyotshunoslikdagi intertekstualizm va postmodernizm kabi nazariyalar bilan bog'liqligi yoritiladi. Maqolada milliy adabiyotimizning tarjima orqali jahon maydonida tanilishi masalalariga ham e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik, ekvivalentlik, madaniyatlararo muloqot, intertekstualizm, badiiy tarjima, hermenevtika.

Jahon madaniy makonida kechayotgan integratsion jarayonlar natijasida milliy adabiyotlarni xalqaro miqyosda tanitish, badiiy tafakkur tajribasini almashish va madaniy muloqot maydonini kengaytirish muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu jarayonda tarjimashunoslik va adabiyotshunoslikning o'zaro bog'liq ravishda rivojlanishi, ayniqsa, turli madaniy an'analar kesishgan nuqtalarda, dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har bir badiiy asar o'z davrining estetik qarashlari, milliy ma'naviyati, tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayotini o'zida mujassam etgan murakkab matndir. Uni boshqa til va madaniyatga ko'chirish esa chuqur lingvistik bilim, badiiy tafakkur va madaniyatlararo kompetensiyani talab qiladi.

Bugungi ilmiy-nazariy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayoni faqat matn mazmunini maqsadli tilga moslashtirish emas, balki badiiy-estetik birliklarni qayta yaratish, muallifning konseptual dunyoqarashini boshqa madaniy kontekstga mos holda talqin etish jarayonidir. Shu nuqtayi nazardan, adabiy jarayon rivoji va tarjimaning sifat ko'rsatkichlari o'zaro uzviy munosabatda bo'lib, ular bir-birini to'ldiruvchi ilmiy yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ilmiy paradigmalarning shakllanishi, xususan, matnga ko'p qatlamli yondashuvlar, madaniy semiotika, kognitiv lingvistika va postklassik adabiyotshunoslik metodlari, tarjima jarayonini yanada teranroq anglash imkonini bermoqda. Bu esa tarjimashunoslikni nafaqat lingvistik fan sifatida, balki multidisiplinar tadqiqot sohasi sifatida talqin etishga zamin yaratadi.

Mazkur tezisda tarjimashunoslik bilan adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy yo'nalishlar kesimida o'zaro uyg'unlashuvi, madaniy muloqot jarayonidagi o'rni hamda milliy badiiy merosni jahonga yetkazishdagi nazariy va amaliy ahamiyati yoritiladi.



Bugungi globallashuv jarayonida millatlararo aloqa, madaniy almashinuv va adabiy merosni o'zaro tanishtirishda tarjimashunoslik hamda adabiyotshunoslik fanlarining roli beqiyosdir. Tarjimashunoslik bir tildagi badiiy yoki ilmiy matnni boshqa tilda qayta yaratish jarayonini o'rganar ekan, u til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ham tadqiq etadi. Adabiyotshunoslik esa badiiy asarlarning estetik, ijtimoiy va falsafiy mohiyatini tahlil etish orqali insoniyat tafakkurining rivojlanish bosqichlarini yoritadi. Shu bois bu ikki soha bir-birini to'ldiruvchi, uyg'un rivojlanadigan ilmiy yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi.

Tarjimashunoslikda ilgari lingvistik ekvivalentlik nazariyasi yetakchi bo'lgan bo'lsa, hozirda uni kognitiv, hermenevtik va madaniy yondashuvlar almashtirmoqda. E. A. Nida, J. C. Catford, A. Popovich kabi olimlar tarjimaning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning ta'kidlashicha, tarjimada asosiy maqsad shaklni emas, balki mazmun va kommunikativ funksiyani to'g'ri yetkazishdan iborat.

O'zbek tarjimashunosligi rivojida A. Qahhor, M. Qo'shjonov, N. Komilov, Sh. Turdiyev va Sh. Qo'chqorovlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, Navoiy, Bobur, Cho'lpon, Oybek kabi adiblar asarlarining turli tillarga tarjima qilinishi jarayonida milliy ruh, badiiy obrazlar va estetik qadriyatlarni saqlab qolish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Adabiyotshunoslik esa tarjimashunoslik uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki tarjima — bu nafaqat lingvistik, balki badiiy-ijodiy jarayondir. Har bir tarjimon muallif dunyoqarashi, asarning davr ruhi va ijtimoiy-estetik kontekstini chuqur tushunishi zarur. Tarjimon badiiy asarni yangi madaniyat muhitida qayta yaratgan holda, unga o'zining talqin uslubini qo'shadi. Shu bois tarjima o'ziga xos “ikkinchi ijod” sifatida qaraladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikdagi intertekstualizm, postmodernizm, diskurs tahlili, feminist nazariya kabi yo'nalishlar tarjimashunoslikka ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, intertekstual yondashuv orqali tarjimada asarlarning o'zaro aloqadorligi, madaniy kodlarning o'zgarishi va talqinlar xilma-xilligi o'rganiladi.

Bugungi kunda tarjimashunoslik va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtalari O'zbekiston adabiyoti va madaniyatini xorijda tanitishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, o'zbek adabiyotining ingliz, rus, turk, koreys tillariga tarjimalari nafaqat badiiy, balki ilmiy, madaniy qadriyatlar almashinuvi sifatida ham ko'rilmogda.

Tarjimashunoslik va adabiyotshunoslikning metodologik asoslari ham tarixiy jarayonlarda izchil rivojlanib borgan. XX asrning o'rtalariga kelib tarjima jarayoniga faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki psixolingvistika, semiotika, madaniy antropologiya va falsafa nuqtayi nazaridan yondashish tamoyili shakllandi. R. Jakobsonning “tarjima turlari” nazariyasi, E. Venuti tomonidan ilgari surilgan “tarjimonning ko'rinishi” kontsepsiyasi, P. Newmarkning kommunikativ va semantik tarjima farqlanishi mazkur jarayonning nazariy poydevorini mustahkamladi.

Shuningdek, tarjimada dinamik ekvivalentlik, funksional adekvatlik, interpretativ model, skopos nazariyasi kabi nazariy yondashuvlar shakllandi. Xususan, H. Vermeer tomonidan taklif etilgan skopos nazariyasi tarjimaning maqsadini markazga qo'ygan holda, tarjimon faoliyatining pragmatik ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu yondashuvga ko'ra, tarjima natijasining



sifatini baholashda lingvistik muvofiqlikdan tashqari kommunikativ vazifa ham hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda esa tarixiy-poetik maktab, formalizm, strukturalizm, fenomenologiya, recepsiya estetikasining shakllanishi badiiy matn tahliliga yangi yondashuvlar olib keldi. M. Baxtinning dialogizm va polifoniya konsepsiyasi, R. Bartning “muallif o‘limi” g‘oyasi, M. Fuko, J. Derrida kabi poststrukturalistlar tomonidan matnning ko‘p qatlamli talqinini ilgari surish tarjima jarayoniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Matnning ochiq talqinga egaligi, kontekstga bog‘liqligi va intertekstual bog‘lanishlari tarjimada ijodiy jarayonning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida tarjimashunoslik nafaqat lingvistik faoliyat, balki madaniyatlararo muloqot, sivilizatsiyalar integratsiyasi va axborot almashinuvi vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, milliy adabiy merosning tarjima orqali dunyoga tanitilishi, xalqaro ilmiy va adabiy maydonda munosib o‘rin egallashi uchun tarjima siyosati, tarjima madaniyati va tarjimonga qo‘yiladigan kasbiy talablar yanada takomillashib bormoqda.

O‘zbek adabiyoti namunalarining jahonga tanitilishida xalqaro grantlar, hamkorlik loyihalari, tarjima maktablarining tashkil etilishi va yosh tarjimonlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishidagi ishlar muhim ahamiyat kasb qiladi. Xususan, Alisher Navoiy asarlarining turli zamonaviy talqinlarda qayta tarjima qilinishi, xalqaro adabiy jarayonlarda Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Asqad Muxtor, O‘tkir Hoshimov kabi adiblar asarlarining o‘rganilishi milliy adabiy taraqqiyotning yangi bosqichiga yo‘l ochmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik fanlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisiz to‘liq rivojlanmaydi. Tarjima nazariyasi adabiyotshunoslikning estetik mezonlariga tayansa, adabiyotshunoslik esa tarjima jarayonida yangi badiiy talqinlarni ochib beradi. Ularning uyg‘unlashuvi milliy adabiyotimizni jahon miqyosida targ‘ib etish, madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirish va ilmiy tafakkurni boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nida E. A. Toward a Science of Translating. — Leiden: E. J. Brill, 1964. — 331 p.
2. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. — Oxford: Oxford University Press, 1965. — 103 p.
3. Popovich A. Teoriya perevoda. — Bratislava: Tatran, 1975. — 248 s.
4. Komilov N. Adabiyot va tarjima masalalari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2000. — 256 b.
5. Qo‘chqorov Sh. Tarjimashunoslik asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. — 312 b.
6. Turdiyev Sh. O‘zbek tarjima maktabi va uning taraqqiyoti. — Toshkent: Ma’naviyat, 2012. — 198 b.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



7. Bassnett S. Translation Studies. — London: Routledge, 2002. — 210 p.
8. Qo'shjonov M. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: O'qituvchi, 1983. 184 b.

